

PAPER

OILADAGI ZO‘RAVONLIKNI KELTIRIB CHIQUARUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

D.Sh. Norqo‘ziyeva ^{1,*} and F.G’.Shokirova²

¹Qo‘qon DU, Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

¹Qo‘qon DU, Psixologiya 1-kurs

*norqo‘ziyeva@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada oilaviy zo‘ravonlikning asosiy sabablari va turlari ijtimoiy-psixologik muammo sifatida jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarda mavjud bo‘lgan muammoning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tahlil qilib berilgan.

Key words: oila, zo‘ravonlik, jamiyat, ijtimoiy-psixologik muammo, ruhiy, manfaatlar to‘qnashuvi, maishiy nizo, shafqatsizlik.

Oiladagi zo‘ravonlik bugungi kunda butun dunyo miqyosida dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Bu hodisa nafaqat jismoniy zarar yetkazish, balki shaxsning ruhiy, emotsional va ijtimoiy farovonligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan murakkab jarayondir.

Oiladagi zo‘ravonlik – bu ijtimoiy jarayon bo‘lib, har to‘rtinchi oilada u yoki bu ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bolalar, ayollar, qariyalar, nogironlar esa mazkur jinoyatdan eng ko‘p aziyat chekadigan toifadir. Tadqiqotlarga ko‘ra, oiladagi zo‘ravonlikka uchragan ayollarning 60–70 foizi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilmaydi. Millatimiz bolajon xalq, oilam, farzandim deb tinmay mehnat qiladi. Ayniqsa o‘zbek ayoli

farzand va oilasining farovonligi uchun har qanday qiyinchiligi, azob-uqubatlarni yengib o‘tishga tayyor. Ammo andishaning otini qo‘rqoq qo‘yib, oilada ayollarga, oilaning ijtimoiy jihatdan zaif qatlamiga nisbatan zo‘ravonlik qilish jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin [10].

Dunyoda globallashuvning jadallashuvi bilan birga, zo‘ravonliklarning ortayotganligi, 35 foiz ayollarning zo‘ravonlikdan jabrlanganligi, 2017-yilda 87 000 nafar voyaga yetmagan va ayollarning 50,58 foizi o‘zi tanigan odam yoki oila a‘zolari tomonidan o‘ldirilganligi shaxsga qarshi zo‘rlilik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar viktimologik profilaktikasining metodologik asoslarini takomillashtirish, mazkur tizimni rivojlantirish va samarali mexanizmlarini ishlab

Compiled on: April 14, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

chiqish zarurati mavjudligini ko'rsatmoqda [9].

Xo'sh oilaviy (maishiy) zo'ravonlik o'zi nima? Oilaviy zo'ravonlik deganda – insonga nisbatan uning yaqin odami tomonidan tajovuzkor munosabatda bo'lish, kuch ishlatish tushuniladi. Odatda bunday tajovuzkorlik jismonan (kaltaklash), jinsiy, ruhiy bosim (qo'rqitish, haqorat qilish, nazarga olmaslik) yoki iqtisodiy (topilgan pul, moddiy manbalarni nazorat qilish va ular orqali bosim o'tkazish) yo'li bilan amalga oshiriladi. Oddiy qilib aytganda, oilaviy zo'ravonlik bu – oiladagi munosabatlarning buzilishiga qaramay, bir shaxsning oilaning ikkinchi shaxsiga qaram bo'lganligi oqibatida uning bosim va zo'ravonliklarga chidab kelishidir. "Oila a'zolari" tushunchasi keng tushuncha bo'lib, uning tarkibiga nafaqat qondosh yoki qonuniy qarindoshlar, balki birga yashovchilar (jinsiy sheriklar, o'gay ota, o'gay ona va boshqalarni) ham kiritish mumkin.

O'zbek psixologlaridan biri, A.Iskandarov o'z asarlarida oilaviy zo'ravonlikning psixologik sabablari va uning ta'sirini tadqiq etgan. U oiladagi zo'ravonlikning psixologik asoslarini, unda qatnashgan shaxslarning his-tuyg'ulari va o'zaro munosabatlarning buzilishi bilan bog'liq omillarni ko'rib chiqqan. Shuningdek, O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olish va uning ta'sirini kamaytirish uchun psixologik maslahatlar va terapiya yondashuvlari taklif qilingan [3].

Bundan tashqari, S. Tashmatov va B. Tursunov kabi psixologlar oilaviy zo'ravonlikning ijtimoiy va psixologik oqibatlarini tahlil qilishga e'tibor berishgan. Ularning ilmiy ishlari oiladagi zo'ravonlikning ayrim ijtimoiy sabablari, masalan, ijtimoiy beqarorlik, iqtisodiy qiyinchiliklar va madaniy tafovutlar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ammo, psixologik omillarni yanada chuqurroq tahlil qilishga bo'lgan ehtiyoj hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda [4].

Chet el ilmiy adabiyotlarida oilaviy zo'ravonlikning psixologik omillari to'g'risida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Dunyoning turli burchaklarida yuzaga kelgan oilaviy zo'ravonlikning sabablari va oqibatlari psixologik nuqtai nazardan ko'plab ilmiy ishlar bilan o'rganilgan. Bu boradagi ko'plab tadqiqotlar zo'ravonlikni shaxsiy, ijtimoiy, madaniy va genetik omillar bilan bog'lashga harakat qiladi.

Amerikalik tadqiqotchi Susan H. va M. Evans

(2006) oiladagi zo'ravonlikni o'rganishda psixologik jihatlariga alohida e'tibor qaratgan. Uning asarlarida oilaviy zo'ravonlikning psixologik sabablari orasida o'zini past baholash, salbiy hissiyotlar, stress va psixologik travmalar muhim o'rin tutishi ko'rsatilgan. Shuningdek, u zo'ravonlikka moyil bo'lgan shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning uzilishiga, agressiv xulq-atvorning rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik holatlar haqida batafsil ma'lumot beradi [2, 110-124].

Yevropada, xususan, Germaniyada oilaviy zo'ravonlikning psixologik asoslarini o'rganishda Erich L. M. Bohnisch (2011) o'z tadqiqotlarida zo'ravonlikni avvalo o'z-o'zini anglash va shaxsiy qoniqish darajasi bilan bog'lashni taklif etgan. Uning fikricha, zo'ravonlikka moyil shaxslar ko'pincha o'zlarining ichki psixologik holatini tartibga solish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar va natijada ular o'zlarining kuchli yoki zaif tomonlarini boshqalar ustidan kuch ishlatish orqali namoyon etadilar [1, 238-245]. Shuningdek, bir nechta tadqiqotlar zo'ravonlikning avlodlararo uzatilishini ham ko'rsatgan. Masalan, Harvard universiteti olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, oilaviy zo'ravonlikni boshidan kechirgan shaxslarning farzandlari ham zo'ravonlikka moyil bo'lishi ehtimolini ko'rsatgan. Bu, psixologik jarayonlar va oilaviy munosabatlarning avloddan-avlodga o'tishi psixologik uzilmas zanjir sifatida qaraladi.

Bunday vaziyatlar bilan ishlashda oilaviy zo'ravonlikning paydo bo'lishiga olib keladigan sabablarni tushunish har doim muhim bo'lgan. Oila a'zolarining oilaviy zo'ravonlarga aylanishining bir necha sabablarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Tashqi sabablar – bu ma'lum bir shaxsning qarorlari yoki xatti-harakatlariga emas, balki ushbu voqealar paytida sodir bo'layotgan hodisalarga bog'liq bo'lgan sabablar, jumladan:

Jamiyatda axloqning o'z holiga tashlab qo'yilishi va inqirozi;

Eng yaxshi tarbiya vositasi sifatida kaltaklashni targ'ib qilgan patriarxal tarbiyaning ko'p asrlik an'analari

Shaxsga nisbatan zo'ravonlik sahnalari, terrorchilik harakatlari manzaralari, vandalizm, sadizm va boshqalarni doimiy ravishda namoyish etuvchi ommaviy axborot vositalarining ta'siri.

Ayollar, erkaklar va bolalar ahvoliga an'anaviy qarash, unda erkak oilaning mutlaq boshlig'i ekanligi, unga "mutlaq" vakolatlar berilganligi ta'kidlanadi.

Geografik, iqtisodiy, siyosiy omillar.

Ichki omillar muayyan shaxsga, uning hayotiy tajribasiga, oilaviy tajribasiga, ruhiy salomatligiga, o'zini o'zi anglash darajasiga, ma'lumoti va madaniyatiga, zararli odatlarning mavjudligiga va turmush tarziga bog'liq: Bolalikda ko'rgan ota-onalarning o'zaro munosabatlari modelidan nusxa ko'chirish, shuningdek, oiladagi noqulay muhit natijasida olingan stress.

Mustabid ota-onalar bolani juda qattiq nazorat qilishlari, uni o'zi xohlamagan narsani qilishga majburlashlari mumkin, xuddi shunday zo'ravonlik ham og'zaki bo'lishi mumkin. Katta bo'lgach, har bir odam ongsiz ravishda o'zini ota-onasi kabi tutadi, o'z oilasida shunga o'xshash qoidalarini o'rnatadi, ota-onasidan birining yoki ikkalasining xatti-harakatlarini takrorlaydi, ularning xatolarini takrorlaydi. Buning sababi shundaki, barchamiz bolalikda ko'rganlarimizni hissiy xotiramizga muhrlab qo'yamiz. Bu bizning, dunyoni idrok etishimizning bir qismiga aylanadi va xulq-atvor darajasida harakatga o'tadi. Oiladagi zo'ravonlik epidemiya xususiyatiga ega ekanligini isbotlovchi tadqiqotlar mavjud - so'rovda qatnashgan erkaklarning to'rt dan uch qismi bolaligida otasining tajovuzkor xatti-harakatlariga guvoh bo'lgan.

Bolalikda muhabbatning yetishmasligi ham tajovuzkorlikka sabab bo'lishi mumkin. Bola to'liq bo'lmagan oilada o'sgan bo'lishi mumkin - ota-onasi ajrashgan yoki ulardan biri vafot etgan. O'sha xafagarchilik bilan inson keyinchalik qattiq pushaymon bo'ladigan xatti-harakatlar qiladi. Zo'ravonlik qurboniga ko'pincha oilaning eng himoyalangan a'zolari (ayol, bola, oilaning keksa a'zolari, nogironlar) aylanadi. 70% hollarda oiladagi zo'ravonlikdan jabrlanganlar ayollar va bolalardir.

A.B.Orlovning ta'kidlashicha, psixologik zo'ravonlik zo'ravonlikning "yadrosi," uning dastlabki shakli bo'lib, uning asosida jismoniy va jinsiy zo'ravonlik yuzaga keladi [5].

Jismoniy zo'ravonlik - ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud tarbiya uchun mas'ul shaxslar tomonidan bolaga qasddan jismoniy shikast yetkazish.

Axloqiy zo'ravonlik yoki shafqatsizlik (bola ehtiyojlarini mensimaslik) - ota-onalar, vasiylar yoki bola tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan boshqa kattalar tomonidan bola haqida oddiy g'amxo'rlikning yo'qligi, natijada uning hissiy holati buziladi va uning sog'lig'i yoki rivojlanishiga tahdid yuzaga keladi.

Emotsional (ruhiy) zo'ravonlik - bu bolada hissiy zo'riqish holatini keltirib chiqaradigan har qanday harakat bo'lib, bu uning hissiy hayotining normal rivojlanishiga xavf tug'diradi.

Yuqorida keltirilgan bolalarga nisbatan zo'ravonlik turlari ro'yxati keyingi paytlarda yana bir tur - iqtisodiy zo'ravonlik bilan to'ldirildi.

Xulosa qilib aytganda, oiladagi zo'ravonlik — bu ko'p qirrali ijtimoiy-psixologik muammo bo'lib, uning kelib chiqish sabablari shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liqdir. Zo'ravonlikning turlari — jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy va ijtimoiy shakllarda namoyon bo'lib, ularning har biri insonning psixologik holatiga, o'ziga bo'lgan ishonchiga va jamiyatdagi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun nafaqat huquqiy choralar, balki psixologik yordam tizimini rivojlantirish, oilaviy muloqot madaniyatini oshirish, ijtimoiy ongni o'zgartirish va zo'ravonlikka nisbatan "murosasiz" munosabatni shakllantirish zarur. Shu tariqa, oilada tinchlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibatni mustahkamlash jamiyatning sog'lom taraqqiyoti va barqaror ijtimoiy muhitni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

REFERENCES

1. Böhnisch, E. L. M. (2011). Psychological consequences of domestic violence: A European perspective. *German Journal of Psychology*, 35(3), 238–245
2. Evans, S. H. M. (2006). The psychological roots of domestic violence. *Journal of Family Psychology*, 22(2), 110–124.
3. Iskandarov AOilaviy zo'ravonlikning psixologik sabablari: O'zbekistondagi holat va tahlil. Tashkent: O'zbekiston Psixologiya Instituti. Dissert. Materiallari, T-2010 .
4. Tashmatov, S., & Tursunov, B. Oilaviy

zo'ravonlikning ijtimoiy va psixologik oqibatlari. O'zbekiston Milliy Universiteti, Tashkent, 2015.

5. Михайлова Н. Ф., Зиновьева Н.О. «Психология и психотерапия насилия» 2003 г
6. Захарова Ж.А., Бородатая М.Н. Предотвращение насилия в семье (опыт регионов). Методическое пособие. – М.: «Оргсервис-2000», 2005.
7. Перов С.Б., Пестина Л.А., Трефилова И.Л., Голиченко Е.В. Профилактика насилия и жестокости в семье. 2000 г.
8. Кон И.С. Психология половых различий // Вопросы психологии. – 1981. – №2.
9. Available at: <https://www.unwomen.org/en/what-we-do/ending-violence-against-women/facts-and-figures/>
10. gov.uz/oz/zomin/news/view/48901